Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari	1347
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation	1364
Fayzieva Nargiza Rabimovna	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili	1371
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni.....	1375
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari	1380
Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati..	1389
Xalikov Suyun Ravshanovich	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar	1394
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	



O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash	1411
Maxkamboyev Komil Abdulkakovich	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalar	1416
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
Raximov Furqat Jalolovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari	1431
Alimbayeva Sevara Alimbayevna	
O'zbekistonda islom banklarini tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish imkoniyatlari	1437
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Yalpi sug'urta mukofoti hajmiga ta'sir etuvchi omillar asosida sug'urta bozorini ekonometrik tahlili.....	1441
Mirzayev Bobur Soyibjonovich	
Biznesni tugatishning yakuniy bosqichi: tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish	1448
Davletov Ikram Raximberganovich	
Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире	1452
Нуриллаев Рахмат Ярашевич	
Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda klasterlash imkoniyatlaridan foydalanish	1458
Mavlanov G'olib	
Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish sharoitida "yashil" sanoat siyosatini amalga oshirish xususiyatlari	1464
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich, Umarov Oqil Omiljonovich	
Метод проектов как одно из условия успешного формирования антикоррупционной компетенции студентов высшей школы	1470
Моховов Дмитрий Анатольевич	
Mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslari va institutlari	1476
Askarov Zoxidjon Sadikjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ta'minlash yullari	1481
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	



MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARI IJROSINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti erkin izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy budjetlarning daromadlari ijrosi samaradorligiga oid dolzarb masalalar haqida so'z boradi. Bunda, 2020-2022-yillarga mo'ljallangan Jizzax viloyati mahalliy budjetining daromadlari ijrosi dinamikasi va tuzilishi tahlili o'tkazilgan. Erishilgan natija hamda mavjud muammolar ko'rsatib o'tilgan. Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet daromadlari, soliq tushumlari, bilvosita soliqlar, bevosita soliqlar, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari.

Abstract: This article will discuss topical issues related to the efficiency of the execution of local budget revenues. At the same time, an analysis of the dynamics of the execution and structure of the revenues of the local budget of the Jizzakh region for 2020-2022 was carried out. The achieved result is indicated, as well as existing problems. Proposals are given to strengthen the financial stability of local budgets.

Key words: local budget revenues, tax revenues, indirect taxes, direct taxes, local Kengashes of people's deputies.

Аннотация: В этой статье речь пойдет об актуальных вопросах, связанных с эффективностью исполнения доходов местных бюджетов. При этом был проведен анализ динамики исполнения и структуры доходов местного бюджета Джизакской области за 2020-2022 годы. Указан достигнутый результат, а также существующие проблемы. Даны предложения по укреплению финансовой устойчивости местных бюджетов.

Ключевые слова: доходы местного бюджета, налоговые поступления, косвенные налоги, прямые налоги, местные Кенгаши народных депутатов.

KIRISH

Mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat budjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hukumat organlarining faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy budjet asosiy moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo'nalishlarini to'liq qamrab oladi.

Shu bilan birgalikda, mahalliy budjetlar davlatning ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarini amalga oshirish, birinchi navbatda, davlat mablag'larini qayta taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Aholining kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy himoyalash bilan bog'liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish ham asosan mahalliy budjetlar orqali amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish alohida ahamiyatga ega.

Mahalliy budjetlar ijrosining asosiy vazifasi – mahalliy budjetga tasdiqlangan soliqlar va boshqa tushumlarning o'z vaqtida va to'liq tushishi hamda hududlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlarni to'liq moliyalashtirish hisoblanadi ^[1].

O'zbekistonda iqtisodiy isloholotlarni chuqurlashtirish jarayonida mahalliy hokimiyatlar vakolatini kengaytirish asosida boshqaruv organlari faoliyatini isloh qilish islohotlarning muhim tarkibiy qismidir. Mahalliy hokimiyatlarning vakolatini kengaytirishning asosiy yo'nalishlaridan biri ularning budjet jarayonidagi vakolatlarini bevosita oshirish bilan bog'liq. Chunki, yuqorida qayd etilganidek, hududiy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizini mahalliy budjetlar tashkil etadi. Zimmalaridagi vazifalar muvaffaqiyatli bajarilishi ko'p jihatdan ularning moliyaviy mablag'larga egaligi bilan bog'liq. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mahalliy budjetlarning moliyaviy mablag'lari bilan ta'minlab boriladi.

Bugungi kunda mahalliy budjetlar mavqeini yanada oshirish hukumatimiz budjet siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lganligi tufayli uni muntazam ravishda qo'llab-quvvatlashga harakat qilinmoqda.



Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budget vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budget daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi PQ-3042-sonli qaroriga asosan mahalliy hokimliklar oldiga o'z hududidagi soliq to'lovchilarni to'liq qamrab olish va soliqlar yig'iluvchanligini oshirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, ishlayotgan, iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini qayta tiklash orqali mahalliy budget daromadlarini ko'paytirish yuzasidan aniq vazifalar qo'yildi [2].

Darhaqiqat, muhtaram Yurtboshimiz rahbarligida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish doirasida mahalliy budgetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash, qo'shimcha zaxiralarni aniqlash orqali budget daromadlarini oshirish, bunda ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga keng joriy qilish orqali ushbu masalaga tizimli yondashish yuqori ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan mahalliy budget daromadlari barqarorligini ta'minlash bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Ularning ilmiy xulosalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu borada professor A.Burxanov va dots. X.Qurbonov hududlarda mahalliy budgetlarning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan ilmiy xulosalarini Qashqadaryo viloyati misolida asoslab berishadi [3].

Jumladan, ular quyidagi ilmiy xulosalarni keltirib o'tadi:

Birinchidan, Qashqadaryo viloyatida davlat budgetiga undirilgan daromadlarda nisbatan iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarning ulushi yuqori bo'lmoqda.

Ikkinchidan, tahlil qilinayotgan davrlarda Qashqadaryo viloyatining ayrim tumanlarida hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, ya'ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, investitsion faollikni yanada rivojlantirish hisobiga yangi korxonalarni barpo etish, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, soliqlar bo'yicha mavjud qarzdorlikni kamaytirish va norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi subyektlarni rasmiy sektorga o'tkazish bilan bog'liq qator islohotlar natijasida ta'minlamoqda.

A. Islamqulov respublikamizda davlat budgeti daromadlari barqarorligi, turli darajadagi budget daromadlari mutanosibligini ta'minlash maqsadida markaziy va mahalliy davlat hokimiyatlarining moliya-budget, budget-soliq sohalaridagi vakolatlarini aniq belgilab olish lozimligini ta'kidlaydi [4]. Bunda, muallif budget tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromad vakolatlari va xarajat majburiyatlarini optimal taqsimlash tizimini mahalliy budgetlar barqarorligini ta'minlash gorizontida amalga oshirishni ilgari suradi.

Professor Sh. Toshmatov mahalliy budgetga soliq tushumlarini oshirishga yo'naltirilgan bir qator tadbirlarni keltirib, unda soliqlarni turli darajadagi budgetlar o'rtasida taqsimlash tizimini mahalliy hokimiyatlarning soliq tushumlarini maksimallashtirishdan manfaatdorligini ta'minlash kontekstida takomillashtirish bo'yicha fikr mulohazalarni berib o'tadi [5]. Shuningdek, hududiy soliq salohiyatini baholash va mahalliy soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish zarurligini ilgari suradi.

N. Xaydarovning fikricha mahalliy budgetlarning daromad manbalarini ko'paytirish va viloyatlarda yangi ish o'rinlarini yaratish uchun xorijiy investorlarni jalb etishni rag'batlantirish zarur. Buning uchun mamlakat bo'yicha xorijiy investorlar tadbirkorlik va tijorat faoliyati bilan shug'ullana olmaydigan soha va tarmoqlar ro'yxati ishlab chiqilib, qolgan barcha soha va tarmoqlarga yashil yo'l borligi ko'rsatilish lozim [6].

Yuqoridagi iqtisodchi olimlar jamoasi tomonidan ilgari surilgan fikr mulohazalarda mahalliy budgetlar daromad bazasini kengaytirishning hozirgi sharoitdagi dolzarb moliyaviy omillari tadqiq etilgan. Ushbu omillar kontekstidagi islohotlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining hudud iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish tizimini rag'batlantiruvchi moliyaviy mexanizmini shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Zero, mahalliy budgetlarning yuqori ijtimoiy ahamiyati iqtisodiy samaradorlikning muhimligi bilan bog'liq bo'lib, uni oshirish bugungi kunda mahalliy davlat hokimiyati organlari oldida turgan ustuvor vazifadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning mahalliy budgetlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, trendli tahlil davri 3 yillik (2020-2022-yillar) Jizzax viloyati mahalliy budget daromadlari manbai tendensiyasini qamrab olgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarda mahalliy budgetlar daromadlarining barqarorligini ta'minlash, ularni samarali boshqarish hamda soliq tushumlarini oshirish masalalarining muhimligini e'tiborga olib, Jizzax viloyatining mahalliy budgeti daromadlari ijrosiga baho beramiz.

"2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan tasdiqlangan Jizzax viloyati mahalliy budgetining prognoz ko'rsatkichlari daromadlar bo'yicha 1 727,2 mlrd so'm, xarajatlari 2 551,8 mlrd so'm miqdorida belgilangan [7].



Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2022-yil 5-yanvardagi VI-31-5-3-0-K/22-sonli qarori bilan viloyat, shahar va tumanlar budjetlarining daromadlari va xarajatlari tasdiqlangan ^[8].

Yil davomida prognoz ko'rsatkichlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilib daromadlar prognozi 29,7 mlrd so'mga kamaytirilgan va aniqlashtirilgan prognoz ko'rsatkichlari 1 697,5 mlrd so'mni, xarajatlar rejasi 1 251,6 mlrd so'mga oshirilib, aniqlashtirilgan reja ko'rsatkichlari 3 803,4 mlrd so'mni tashkil etgan.


2022-yilda daromadlar ijrosi 1 822,8 mlrd so'mni tashkil etib, aniqlashtirilgan prognozga nisbatan 107 foiz yoki 125,3 mlrd so'mga ko'p, xarajatlar ijrosi esa 3 928,5 mlrd so'm bo'lib, aniqlashtirilgan rejaga nisbatan 125,1 mlrd so'mga ko'p yoki 103 foizga bajarilgan.

1-jadval: Jizzax viloyati mahalliy budjetining 2022-yildagi daromadlari ijrosi to'g'risida tuman (shahar)lar kesimida ma'lumot, mlrd so'm

№	Hududlar nomi	Tasdiqlangan soliq tushumi prognozi	Aniqlashtirilgan soliq tushumi prognozi	Tushum	Ijro (foizda)
1	Arnasoy tumani	25,5	26,8	29,6	110,4
2	Baxmal tumani	81,1	86,4	89,7	103,8
3	G'allaorol tumani	86,3	94,2	104,1	110,6
4	Sh. Rashidov tumani	130,1	136,0	144,1	106,0
5	Do'stlik tumani	45,2	46,7	47,7	102,2
6	Zomin tumani	103,3	108,5	114,1	105,2
7	Zarbdor tumani	53,5	54,8	61,8	112,7
8	Zafarobod tumani	32,1	29,0	31,1	107,2
9	Mirzacho'l tumani	36,1	37,3	38,4	103,1
10	Paxtakor tumani	46,3	48,2	51,3	106,4
11	Forish tumani	56,4	58,0	60,8	104,7
12	Yangiobod tumani	16,9	17,6	19,1	108,6
13	Jizzax shahri	151,4	152,1	163,3	107,4
14	Viloyat byudjeti	863,0	802,0	867,7	108,2
	Jami	1 727,2	1 697,5	1 822,8	107,4

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.

Shuningdek, viloyat mahalliy budjeti daromadlari 2021-yilga nisbatan 362,3 mlrd so'mga yoki 24,8 foizga oshgan.



1-rasm: 2018-2022-yillarda Jizzax viloyati mahalliy budjeti daromadlari dinamikasi

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.


2021-yilga nisbatan bilvosita soliqlar, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i, boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlarning viloyat mahalliy budjeti daromadlaridagi ulushi kamaygan bo'lsa, bevosita soliqlarning ulushi oshgan.



2-jadval: 2020-2022-yillarda Jizzax viloyati mahalliy budjetining daromadlari ijrosi (soliq turlari kesimida) to'g'risidagi ma'lumot

№	Ko'rsatkichlar	2020-yil		2021-yil		2022-yil	
		summa, mlrd so'm	jami tushumga nisbatan foizda	summa, mlrd so'm	jami tushumga nisbatan foizda	summa, mlrd so'm	jami tushumga nisbatan foizda
	Mahalliy byudjet daromadlari	1 057,9		1 460,4		1 822,8	
1.	Bevosita soliqlar	544,7	52	707,1	45 ▼	920,6	51 ▲
2.	Bilvosita soliqlar	141,7	13	274,7	18 ▲	317,8	17 ▼
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	241,4	23	415,6	27 ▲	402,8	22 ▼
4.	Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar	130,1	12	163,2	10 ▼	181,5	10 ▼

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.



2-rasm: 2020-2022-yillarda Jizzax viloyati mahalliy budjeti daromadlari tuzilmasi

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.

Bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar 2022-yilda 920,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 213,5 mlrd so'mga yoki 30,2 foizga oshgan.



3-rasm: 2020-2022-yillarda bevosita soliqlar turlari bo'yicha tushumlar dinamikasi

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.



Foyda solig'i bo'yicha tushumlar 2022-yilda 169,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 37,7 mlrd so'mga yoki 28,7 foizga oshgan.

Tushumlarni o'sishiga quyidagi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatgan:

1. Foyda solig'ini to'lovchilar soni 2022 yilda 6 651 tani tashkil qilib, 2021-yilga nisbatan 5 542 taga yoki 20 foizga, 2020-yilga nisbatan 4 263 taga yoki 30 foizga oshgan ^[9];
2. 2022-yilda foyda solig'i bo'yicha bo'nak to'lovlarini to'laydigan soliq to'lovchilar soni 440 tani tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 278 taga yoki 158 foizga oshgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar 2022-yilda 653,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 147,1 mlrd so'mga yoki 29,1 foizga oshgan.

Bunda, qat'iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar 2022-yilda 15,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 0,2 mlrd so'mga yoki 1 foizga kamaygan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlarning o'sishiga quyidagi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatgan:

1. Budget sektorida eng kam ish haqining 2021-yilga nisbatan o'rtacha 14,7 foizga oshirilishi;
2. Iqtisodiyotning barcha sektorlarida xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining legallashtirib borilishi.

Ma'lumot uchun: 2022-yilda Jizzax viloyati bo'yicha iqtisodiyotning barcha sektorlarida band bo'lgan 18,1 ming nafar ishchi va xodimning faoliyati legallashtirilgan ^[10].

Natijada, 2022-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari soni 182,3 mingtani tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 7 mingtaga yoki 4 foizga oshgan.

3-jadval: 2021-2022-yillarda Jizzax viloyati bo'yicha budget va nobudget tashkilotlari kesimida ish haqi darajasi dinamikasi

№	Ish haqi miqdori	2021-yil dekabr		2022-yil dekabr	
		To'lovchilar soni	Ulushi (foizda)	To'lovchilar soni	Ulushi (foizda)
1	1 mln so'mgacha	61 448	36,0	55 858	31,3
	byudjet sektorida	17 711	10,4	14 400	8,1
	nobyudjet sektorida	43 737	25,6	41 458	23,2
2	1 mln so'mdan 2 mln so'mgacha	44 527	26,1	43 921	24,6
	byudjet sektorida	25 440	14,9	24 591	13,8
	nobyudjet sektorida	19 087	11,2	19 330	10,8
3	2 mln so'mdan 4 mln so'mgacha	41 587	24,4	44 284	24,8
	byudjet sektorida	25 371	14,9	27 187	15,2
	nobyudjet sektorida	16 216	9,5	17 097	9,6
4	4 mln so'mdan 5,5 mln so'mgacha	11 604	6,8	14 514	8,1
	byudjet sektorida	6 181	3,6	8 311	4,7
	nobyudjet sektorida	5 423	3,2	6 203	3,5
5	5,5 mln so'ma va undan yuqori	11 414	6,7	19 945	11,2
	byudjet sektorida	5 579	3,3	8 652	4,8
	nobyudjet sektorida	5 835	3,4	11 293	6,3
Jami		170 580	100	178 522	100


Shuningdek, 2022-yilda mehnatga haq to'lash fondi 4,9 trln so'mga yetib, 2021-yilga nisbatan 1,0 trln so'mga yoki 26 foizga oshgan.

Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha tushumlar 2022-yilda 82,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 5,7 mlrd so'mga yoki 7,3 foizga oshgan.

Mazkur soliqni to'lovchilar soni 2022-yilda 17,5 mingtani tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 1,2 mingtaga yoki 107 foizga oshgan.



Soliq tushumining hududlar kesimidagi tahliliga ko'ra, Jizzax shahrining ulushi eng yuqori – 33,1 foizni tashkil etgan.



4-rasm: 2022-yilda hududlar kesimida aylanmadan olinadigan soliq tushumlari

Manba: Jizzax viloyati soliq boshqarmasi ma'lumotlari.

Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha tushumlarning o'sishiga iqtisodiy o'sish, soliq organlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, xususan, onlayn NKM, "kesh-bek" va "soliq hamkor" tizimlarini joriy etilishi ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga onlayn nazorat-kassa mashinasini hamda virtual kassaga ulangan, shtrix-kodlar va raqamli markirovka kodlarini to'g'ri o'qishni va aniqlashni ta'minlovchi maxsus qurilmalarni sotib olish bilan bog'liq xarajatlarini aylanmadan olinadigan soliq bazasidan chegirish imkoniyati berilganligi natijasida 5 078 ta soliq to'lovchilar ixtiyorida 6,1 mlrd so'm mablag' qolgan.

Aksiz solig'i bo'yicha tushumlar 2022-yilda 317,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 43,1 mlrd so'mga yoki 15,7%ga oshgan.

2022-yilda tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i tushumlari mahalliy budjet ixtiyoriga o'tkazilib, budjetga 93,2 mlrd so'm tushum undirilgan.

Shuningdek, 2021-yil oktyabr oyidan o'zgartirilgan qat'iy summada belgilangan aksiz solig'i stavkalari alkogol va tamaki mahsulotlari uchun 2022-yil 1-iyunga qadar saqlab qolingan va 2022-yil 1-iyundan o'rtacha 10 foizga indeksatsiya qilingan.

Alkogol mahsulotlari (pivo mahsulotlari bilan birga)- 86,9 mlrd so'm (2021-yilda – 74,3 mlrd so'm)

uyali aloqa xizmati – 49,5 mlrd so'm
(2021-yilda – 40,1 mlrd so'm; 2020 yilda – 109,6 mlrd so'm)

Tamaki – 93,2 mlrd so'm

benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasi – 88,1 mlrd so'm
(2021-yilda – 60,1 mlrd so'm; 2020 yilda – 31,8 mlrd so'm)

5-rasm: 2020-2022-yillarda aksiz osti tovarlari kesimida soliq tushumlari

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.

Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar 2022-yilda 402,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 12,8 mlrd so'mga yoki 3,2 foizga kamaygan.




4-jadval: 2020–2022-yillarda resurs va mol-mulk soliqlari undirilishi to'g'risida ma'lumot, mlrd so'm

Daromadlar nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	O'sish sur'ati	
				2020-yilga nisbatan (foizda)	2021-yilga nisbatan (foizda)
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	25,1	40,3	58,4	232,7	144,9
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	25,5	28,9	30,2	118,4	104,5
Yuridik shaxslar yer solig'i	37,9	77,1	106,5	281,0	138,1
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	47,9	61,9	77,1	161,0	124,6
Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	96,9	191,5	116,1	119,8	60,6
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	8,5	15,9	14,5	170,6	91,2

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Resurs soliqlari bo'yicha tushumlarning tarkibida yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hamda yer solig'i ulushi 2021-yilga nisbatan 5,3 foiz va 12,1 foizga oshib, yer qa'ridan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning ulushi mos ravishda 17,3 foiz va 0,2 foizga kamaygan.



- mol-mulk soliği
- yer soliği
- yer qa'ridan foydalanganlik soliği
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliği

6-rasm: 2020–2022-yillarda resurs va mol-mulk soliqlari o'zgarishi

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha tushumlar 2022-yilda 116,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 75,5 mlrd so'mga yoki 17,3 foizga kamaygan.

Tushumlarning kamayishi foydali qazilmalarning ayrim turlari bo'yicha soliq stavkalarining unifikatsiya qilinishi va pasaytirilishi bilan ifodalanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha tushumlar 2022-yilda 58,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 18,1 mlrd so'mga yoki 1,4 barobarga oshgan.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha tushumlarning o'sishiga (soliq stavkasi 2 foizdan 1,5 foizgacha pasaytirilishiga qaramasdan) ta'sir ko'rsatgan omillardan biri 2022-yil 1-yanvardan boshlab bino va inshootlarga, ularning joylashgan joyiga bog'liq holda 1 m² uchun mutlaq miqdorlarda belgilangan eng kam qiymatlarni nazarda tutuvchi norma joriy etilganligi sabab bo'lgan.

Minimal qiymatlar mol-mulk solig'ini bozor qiymatiga yaqin kadastr qiymatidan kelib chiqib hisoblashga bosqichma-bosqich o'tish maqsadida kiritilgan.

Bunda, xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashi qarori bilan mol-mulk solig'ini hisoblash uchun belgilangan eng kam qiymatga 9 ta tumanga 0,5-0,9 oralig'idagi kamaytiruvchi koeffitsiyent tasdiqlangan bo'lsa, 4 ta tumanga kamaytiruvchi koeffitsiyent qo'llanilmagan.



2022-yilda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar 30,2 mlrd so'mni tashkil etgan va 2021-yilga nisbatan 1,2 mlrd so'mga yoki 4,0 foizga oshgan.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha tushumlar 2022 yilda 106,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 29,4 mlrd so'mga yoki 38,1 foizga oshgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha tushumlar 2022-yilda 77,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 15,1 mlrd so'mga yoki 24,4 foizga oshgan.

2022-yilda ushbu soliq turlari bo'yicha qo'shimcha tushumlarning o'sishi yer solig'i stavkalarini 7 foizga indeksatsiya qilinishi hamda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi qaroriga asosan jismoniy shaxslarga tegishli yerlar uchun qo'llanilgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar hisobiga to'g'ri kelgan.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha tushumlar 2022-yilda 14,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 1,3 mlrd so'mga yoki 8,4 foizga kamaygan.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq stavkalari 10 foizga, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari uchun esa – 30 foizga indeksatsiya qilingan bo'lishiga qaramasdan tushumlarning oshishiga erishilmagan.

Boshqa daromadlar prognozi 193,8 mlrd so'm miqdorida tasdiqlanib, aniqlashtirilgan prognoz 168,4 mlrd so'mni tashkil etgan hamda tushumlar 181,5 mlrd so'mga yoki 107,8 foizga bajarilib, 2021-yilga nisbatan 18,3 mlrd so'mga yoki 11,2 foizga oshgan.

2022-yilda boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan to'lovlarning asosiy ulushi (35 foizi) davlat boji hisobiga to'g'ri kelgan va 63,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

5-jadval: Jizzax viloyati mahalliy budjetining 2022-yildagi boshqa daromadlari ijrosi to'g'risida tuman (shahar)lar kesimida ma'lumot, mln so'm

T/p	Hududlar nomi	Tasdiqlangan prognoz	Aniqlashtirilgan prognoz	Amalda tushum	Ijro (foizda)
1	Arnasoy tumani	40	40	59,9	150
2	Baxmal tumani	65	65	89,9	138
3	G'allaorol tumani	220	220	156,2	71
4	Sh. Rashidov tumani	350	350	395,8	113
5	Do'stlik tumani	50	50	73,8	148
6	Zomin tumani	220	220	333,5	152
7	Zarbdor tumani	50	50	105,3	211
8	Zafarobod tumani	40	40	35,7	89
9	Mirzacho'l tumani	50	50	72,6	145
10	Paxtakor tumani	50	50	272,6	545
11	Forish tumani	50	50	51,3	103
12	Yangiobod tumani	40	40	65,8	165
13	Jizzax shahri	606	606	1 593,9	263
14	Viloyat byudjeti	191 967	166 597	178 198,7	107
	Jami	193 798	168 428	181 505,0	108

Manba: Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida budjet resurslarini samarali boshqarish imkonini beruvchi mexanizmlarni yaratish va ularning ishlashini ta'minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida daromadlar kamayishini hisobga olgan holda daromadlar bazasi barqarorligini saqlash, budjet xarajatlarini boshqarishga qat'iy yondashib, soliq salohiyatini rivojlantirish choralarini ko'rish zarur. Faqat shunda mahalliy budjetlarni shakllantirish va ijro etishning bugungi tizimini ko'rib chiqish mumkin. Bunday holda umumiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan respublika va mahalliy tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samarali vertikal modelini yaratish ham muhimdir.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, Jizzax viloyatida mahalliy budjet daromadlari bazasini mustahkamlash maqsadida kelgusida quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

1. Viloyat eksportida xomashyo mahsulotlarining ulushi yuqori. Qayta ishlash quvvatlarini oshirgan holda yuqori qo'shilgan qiymat yaratish hisobiga soliq bazasini kengaytirish;



2. Viloyatning asosiy drayveri – qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish maqsadida, sohadagi korxonalarda nou-xaularni qoʻllagan holda innovatsion (sifatli, oʻtga va suvga chidamli) mahsulotlarni ishlab chiqarish;
3. Xizmatlar yoʻnalishida keng imkoniyatlar mavjud, viloyat hududidan M-39 va A-376 xalqaro avtomagistral yoʻllari oʻtganligini hisobga olgan holda transport logistikasini rivojlantirish, xalqaro yoʻllar boʻyida xizmat koʻrsatish obyektlarini tashkil etish;
4. Sanoat zonalaridagi boʻsh maydonlarda yangi loyihalarni amalga oshirib yangi ish oʻrinlarini yaratish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni oʻzlashtirish;
5. Mavjud turistik resurs salohiyatidan samarali foydalanish, agro, eko, tibbiy va boshqa turdagi yangi turizm marshrutlarini tashkil etish.

Shuningdek, mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini taʼminlash maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. Qishloq xoʻjaligi klasterlari, fermer va dehqon xoʻjaliklarida yaratilgan ish oʻrinlari soliq hisobotlarida qayd etilishini ragʻbatlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish;
2. Korxona va tashkilotlarda mehnat qilayotgan ishchi va xodimlar faoliyatini, ularga ish haqi toʻlanishini belgilangan tartibda qayd etish maqsadida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning progressiv shkalasini qoʻllash;
3. 2 tadan koʻp turarjoyga ega boʻlgan jismoniy yoki yuridik shaxslarga mol-mulk va yer soligʻi miqdori stavkasini 2 barobargacha oshirish;
4. Mahalliy budjetning qoʻshimcha manbalari mablagʻlari negizida yangi ish oʻrinlarini yaratishga va mablagʻlar aholi bandligini taʼminlash maqsadlarini koʻzda tutuvchi tadbirlarga yoʻnaltirilishiga alohida eʼtibor qaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kasimova G.A., Shaakramov K.K. Mahalliy budjetlar. Oʻquv qoʻllanma. –T.: “Moliya”, 2012. -63 b.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi masʼuliyatini oshirish toʻgʻrisida”gi PQ–3042-sonli qarori
3. Burxanov A.U., Qurbonov X.A. Hududlarda mahalliy budjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yoʻllari (qashqadaryo viloyati misolida)// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №1, yanvar-fevral, 2018-yil.
4. Islamkulov A.K. Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini taʼminlash masalalari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016-yil.
5. Toshmatov Sh.A. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda davlat budjeti daromadlari manbalarini kengaytirish yoʻnalishlari // Oʻzbekistonda moliya sektorini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari toʻplami. 2017-yil 10-noyabr. –T.: TDIU, 2017. -b.27-28.
6. Xaydarov N.X. “Mahalliy budjetlar: muammo va innovatsion yechimlar”. “Oʻzbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2020-yil, 2-son.
7. Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrda “2022-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi OʻRQ-742-sonli Qonuni 6-ilovala.
8. Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2022-yil 5-yanvardagi 1-31-5-3-0-K/22-sonli qarori
9. Jizzax viloyati soliq boshqarmasi maʼlumoti
10. Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi maʼlumotlari
11. <https://www.imv.uz> Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti.
12. <https://jizzax.uz> Jizzax viloyati hokimligining rasmiy veb sayti.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.